

ONA TILIM - SARCHASHMANGDAN SARXUSH DILIM

Mirzayeva Adolat Javliyevna

Surxondaryo viloyati Jarqôrƣon tumani 38-umumita'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani ôqituvchisi

Til – inson qalbining ko'zgusidir. Unda nafaqat inson qalbi, balki o'sha xalqning o'tmishi, buguni, kelajagi, madaniyati va boshqa bir qancha jihatlari ham aks etib turadi. Bejizga biz til so'ziga ona so'zini egizak qilib aytmaymiz. Shuning uchun ham biz uni onamizdek qadrlashimiz, e'zozlashimiz, saqlashimiz va kelajak avlodga sof holda etkazishimiz lozim. Til insonning libosidir. Bu libosni qanday kiyish har bir insonning o'ziga bog'liq. Ba'zi insonlar oddiy libosni ham go'zal qilib, yarashtirib kiyadi. Ba'zi insonlarda esa har qanday go'zal libos o'z ko'rkini yo'qotadi. Til – qalb tarjimonи. Chunki har bir so'z, eng avvalo, qalb torlarida chertiladi. So'ngra so'zlarda jilolanib tinglovchiga etkaziladi.¹

Til millatning ongi va xotirasi, ruhiyati, ma'naviy qiyofasi, tashqi olamga munosabatining in'ikosidir. Millat, davlat, jamiyat taraqqiy qilar ekan, uning ona tiliga bo'lgan e'tibori va mehri kuchaya boradi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Xar bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur" degan hikmatli so'zları ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.²

Davlatimiz rahbari "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'ren egallab kelayotgan buyuk qadriyat", ekanini alohida ta'kidlab o'tgandi. Darhaqiqat, til – millat tafakkurining bebaho mahzani, ulkan boyligi sifatida ijtimoiy hayotimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tillarini saqlab qolish, madaniy, intellektual merosning yo'q bo'lib ketish xavfining oldini olish maqsadida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) tomonidan 1999-yil noyabrda "21-fevral – Xalqaro ona tili kuni", deb e'lon qilingan. Mazkur sana dunyoda tillarga bo'lgan e'tibor va hurmatning ramziy ma'nosini ifodalab keladi.³

Ona tili – millatning ruhidir. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Bundan 35 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z davrida tom ma'noda olamshumul voqeа bo'lgan edi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq prezidentimiz tomonidan o'zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. Ona tilimiz – o'zbek tiliga 1989 yil 21 oktabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi

unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar o'shanda til to'g'risida qonun qabul qilinmaganda edi, o'zbek tili ham tarix saxifalaridan joy olgan bo'larmidi?!

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqlol yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jiddlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.⁴

O'zbekiston Prezidenti 2019 yil 21 oktyabrdan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unga muvofiq, "2020 - 2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi tasdiqlandi.

2020 yil 20 oktyabrdan esa Prezidentimizning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. 21 oktyabr - O'zbek tili bayrami kuni, deb belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida mustahkamlanganidek, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Ona tilimizning xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini hayotga to'laqonli tatbiq etish barchamizning fuqarolik burchimizdir.⁵

O'zbek tili jahon minbarlarda baralla yangradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMTi minbarida ajoyib nutq so'zlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yetmish beshinchi yubiley sessiyasining yuqori darajadagi umumsiyosiy munozaralarida ishtirok etdilar. Ushbu chiqishning tarixiy ahamiyati shundaki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilgani va unga O'zbekiston a'zo bo'lib kirgandan buyon ilk bor tashkilot minbarida O'zbekiston rahbari o'zbek tilida nutq so'zlaydi.⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.<https://yuz.uz/uz/news/ona-tili--millat-ruhi>
- 2.<https://adu.uz/uz/news/article/589>
- 3.<https://iiau.uz/oz/news/592>
- 4.<https://kun.uz/news/2016/10/21/ona-tili-millatning-ruidir?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F10%2F21%2Fona-tili-millatning-ruidir>
- 5.<http://pravacheloveka.uz/oz/articles/til-millat-kzgusi>
- 6.<https://qalampir.uz/uz/news/bugun-uzbekiston-tarikhida-tarikhay-kun-mirziyeev-bmt-minbarida-uzbek-tilida-nutk-k-iladi-26143>